

МУГАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҶ



ISSN 2181-7138

№ 1 / I 2021 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия аъзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Өсербай ӨЛЕЎОВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Кеңесбай ДАУЛЕТЯРОВ
Гулнара ЖУМАШЕВА
Батырбек КАИПБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Сарсен КАЗАХБАЕВ
Гулмира КАРЛЫБАЕВА
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Зухра СЕИТОВА
Айдын СУЛТАНОВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Ризамат ШОДИЕВ
Ойбахор ШАМИЕВА
Бекзод ХОДЖАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсор ЭРТАШЕВА

Шўлкемлестириўшилер:

**Қарақалпақстан Республикасы
Халық билимлендириў
Министрлиги, ӨЗПИИИ
Қарақалпақстан филиалы**

**Ўзбекстан Республикасы
Министрлер Кабинети
жанындағы Жоқарғы
Аттестация Комиссиясы
Президиумының 25.10.2007
жыл (№138) қарары менен
дизимге алынды**

**Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм
хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алынды №01-044-санлы гуўалық
берилген.**

**Мәнзил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00
e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz**

Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм ўзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилюи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген мағлұматларға автор жуўапкер.

МАЗМУНЫ

БАСЛАЎҲИ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Mardonov Sh.Q., Abdullayev A.A. Maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab hamkorligi	4
Mahmudova D.B. Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan o'yinlar va ularni tashkil etish metodikasi	8
Shanasirova Z.Yu. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash hamda nutqini rivojlantirish	13
Abdullayeva M.Dj. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar	17
Narimbayeva L.K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalariidan foydalanishning ahamiyati	20
Nosirova R.X. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa ta'limi va tarbiyasining mohiyati ..	22
Xolmatova S.K. Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda Sharq mutafakkirlari fikrlaridan foydalanish ahamiyati	26
Maripova N.H. Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya	28
Sanakulova A.R. Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlarida huquqiy tarbiyani rivojlantirish	31
Teshabayeva Z.S. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya maqsadi	34
Nasirova Z.X. O'yin turlari: ijodiy o'yinlar, qoidali o'yinlar, milliy o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari	38
Shanasirova Z.Yu. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning ahamiyati	43
Jo'raboyev A.B. Maktabgacha ta'lim tizimida ma'naviy qadriyatlarini singdirish amaliyoti	48
Abdullayev A.A. Maktabgacha ta'lim muassasalarida rahbarlik qilish va tashkil etishning zamonaviy usullari	51
Achilova M.S. Maktabgacha ta'lim muassasalarida estetik tarbiyaning mazmuni	55
Ochilov F.I., Xusanova N.B. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy pedagogik kompetentsiyalarni shakllantirish talablari	58
Narimbetova Z.A., Asqarova N.J. Boshlang'ich sinf matematika darslarida didaktik o'yinlarning ahamiyati	62
G'ulomova X. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida maqollar estetikasi	67
Умарова З.А. Бошланғич таълимда педагогик жараён	70
Жабборова О.М., Сайидганиева З.С. Бошланғич таълим педагогикаси: мазмун ва моҳият	74
Quzmanova G.B., Ergasheva M.E. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ota-onalar yig'ilishini samarali tashkil etish	78
Мамадалиев К.Р. Бошланғич таълим йўналиши ўқув фанлари тузилмаси ва замонавий ўқув адабиётларини яратиш принциплари	80
Тожибоева Г.Р., Крымская Э. Проблемы развития творческих способностей в процессе становления будущего учителя начальных классов	86

ТИЛ ХАМ ӘДЭБИЯТ

Матчинов С., Холикулова Ф. Ўқувчиларнинг нутқий кўникмаларини шакллантиришда матнинг лингводидактик таҳлили	91
Шерматова У.С., Жабборова О.М. Самостоятельное чтение и интерпретация правды жизни	95

РЕЗЮМЕ

Мақолада бошланғич таълим педагогикаси мазмуни ва моҳиятини янгича идрок этиш масалалари таҳлил этилган.

РЕЗЮМЕ

В статье анализируются вопросы нового понимания содержания и сущности педагогики начального образования.

SUMMARY

The article analyzes the issues of a new understanding of the content and essence of primary education pedagogy.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTEBLARIDA OTA-ONALAR YIG'ILISHINI SAMARALI TASHKIL ETISH

Quzmanova G.B.

Toshkent viloyati ChDPI "Boshlang'ich ta'lim" kafedrası o'qituvchisi

Ergasheva M.E.

Toshkent viloyati ChDPI Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ishi yo'nalishi talabasi

Tayanch so'zlar: o'qituvchi, sinf, rahbar, yig'ilish, ota-ona, o'quvchi, ta'lim, mahalla, oila, shaxs, tarbiya, maktab.

Ключевые слова: учитель, класс, руководитель, встреча, родитель, ученик, образование, соседство, семья, человек, воспитание, школа.

Key words: teacher, class, leader, meeting, parent, student, education, neighborhood, family, person, education, school.

O'qituvchi – insonning bir umrlik yo'lini yorituvchi shaxs. U hayot mash'alini qo'lida tutib turgan, muvaffaqiyatlar gulshani sari eltuvchi ajib bir nur.

O'quvchilarning har tomonlama rivojlanishida sinf rahbarining tarbiyaviy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Sinfda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yuvchi, o'quvchilarning tarbiyachisi va murabbiysiga sinf rahbar deyiladi. Shu nuqtai nazardan, har bir o'qituvchi sinf rahbar hisoblanadi.

Sinf rahbar faoliyati, odatda, sinf o'quvchilarini alohida-alohida o'rganishdan boshlanadi. Sinf rahbari o'quvchilarni o'rganishda quyidagilarni bajarishi kerak:

- 1) rahbar bo'lib tayinlangan sinf o'quvchilarining shaxsiy varaqlari bilan tanishish;
- 2) o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilarni aniqlash;
- 3) tarbiyasi og'ir bo'lgan o'quvchilarni aniqlash;
- 4) ota-onasi bo'lmagan, qarindosh urug'larining qaramog'idagi o'quvchilarni aniqlash;
- 5) sinf o'quvchilari uy sharoitlari bilan tanishish.

Sinf rahbarning asosiy vazifasi o'quvchilarga tarbiya berish va ularni do'stona jamoa qilib jipslashtirishdan iborat. Bundan tashqar o'z sinfdagi o'quv ishlarni olib borish, o'quvchilarini har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalash, o'quvchilarni o'zlashtirmaslik sabablarini aniqlash va buni bartaraf etish, o'quvchilarning oilasi, bilan tanishish ham uning zimmasiga yuklanadi.

Bundan, tashqari nizomga ko'ra sinf rahbarning faoliyat yo'nalishidagi ish turlarga bo'linadi. Bular:

- Sinf rahbar vazifalari: 1. Sinf rahbari bolalarni yaqin do'sti va mehribon ustoz bo'lishi.
2. O'quvchilarni tarbiyalangan darajasini bilish.
3. O'quvchilarni milliy istiqloq g'oyasi asosida tarbiyalash.

Ota-ona va mahalla bilan hamkorlik: 1. Bolalar oilasi va ota-onalar bilan tanishish, hamkorlik qilish. 2. Sinf ota-onalar qoʻmitasi bilan ishlash. 3. Taʼlim-tarbiyani uzviy tashkil qilishda fan oʻqituvchilariga yordam berish.

Oʻquvchilarni boʻsh vaqtini tashkil qilish: 1. Oʻquvchilarni isteʼdod va qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga yordam berish. 2. Madaniy dam olish uchun shart-sharoit yaratish. 3. Turli oqimlardan saqlash.

Oʻquvchilarni oʻzini oʻzi boshqarishi: 1. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakat tashkiloti bilan hamkorlik. 2. “Kamalak” bolalar tashkiloti tomonida tashlik etilgan tadbirlarga oʻquvchilarni qatnashtirish.

Sinf rahbarning huquqlari: 1. Tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish.

2. Oʻquvchilar xulqini baholash, sinf majlisini oʻtkazish.

Sinf rahbari rejas: 1. Sinf oʻquvchilarini tarbiyalangan darajasiga koʻra tuzish. 2. Sinf rejasida maktab oʻquv tarbiya rejasiga bilan uzviy bogʻliq boʻlishi. [3, B. 144]

Sinf rahbar maktab pedagogik jamoasi va pedagogik kengashning azosidir. U barcha tashkilotchilik va tarbiyaviy ishlarini faqat yolgʻiz oʻzi emas, balki maktab direktori, uning oʻrinbosarlari, oʻz sinfida dars berayotgan boshqa oʻqituvchilar va albatta, oʻquvchilarning ota-onalari bilan hamkorlikda olib borishi lozim.

Hozirgi kunda koʻpchilik sinf rahbar-oʻqituvchilar uchun muammo boʻlib kelayotgan masala – bu oʻquvchilar ota-onalarini yigʻilishga jalb qilish, baʼzi hollarda ularning oʻrniga qarindoshlarning ishtirok etishlaridir. Ayniqsa, yigʻilishda ota-onaning oʻrniga boshqa shaxslarning ishtirok etishi nafaqat oʻqituvchining, balki oʻquvchining ham dilini xira qiladi. Bunday holatlar yuz bermasligi uchun oʻqituvchi pedagogik mahoratga ega va ota-onalar bilan uzviy aloqada boʻlishi zarur. Bundan tashqari, ota-onalarning yigʻilishda faol ishtirok etishini har bir oʻqituvchining oʻzi taʼminlaydi. Zarurat tugʻilsa, har bir yigʻilish uchun “Taklifnomalar” ishlab chiqishi va yigʻilish sanasidan 3-4 kun avval oʻquvchilar tomonidan berib yuborishlari ham maqsadga muvofiqdir.

Yigʻilish oʻtkazish qonun-qoidalar:

1) yigʻilish oʻtkazishdan maqsadi;

2) yigʻilishda koʻriladigan asosiy muammo;

3) muammoning chora tadbirlari;

4) xulosadan iborat boʻlishi kerak.

Ota-onalar bilan oʻtkaziladigan yigʻilishdan maqsad ulardan moddiy tomondan yordam olish emas, balki ular bilan oʻquvchilarda yuz berayotgan oʻzgarishlar toʻgʻrisida fikr almashish yuzasidan boʻlishi lozim. [2, B. 150]

Koʻpchilik pedagoglar yigʻilishda har doimgi bir xil gapni, yaʼni oʻquvchilarning xulq-atvori qoʻpolligini darslarda faol ishtirok etmasligini barcha ota-onalarning ishtirokida (yuziga solishadi) taʼkidlashadi. Ming afsuslar boʻlsinki, bu holatda har qanday ota-ona ham xijolat boʻlishadi va keyingi oʻtkaziladigan yigʻilishlarda ishtirok etishdan bosh tortadi. Buning oʻrniga oʻqituvchi oʻz oʻquvchilari bilan birgalikda biron-bir saxna koʻrinishi orqali yoki biron-bir oʻyin orqali qanday holat yuz berishini koʻrsatib berishi lozim. Misol uchun: har bir oʻquvchining husnixat daftarlarini bir qator qilib qoʻyib, ular orasida oʻz farzandining husnixatini topishni soʻrash mumkin. Koʻp hollarda ota-ona husnixat daftarlari orasidan qaysi biri farzandiga tegishli ekanligini aniqlay olmaydi. Bu holatdan ota-ona oʻzining kamchiligini va bu usul bilan ota-ona farzandlariga qanchalik darajada eʼtiborsiz boʻlganligini, ular bilan koʻproq vaqt oʻtkazishiga, birgalikda ishlashlari zarurligini uqtirish ham mumkin. Agarda bunday holdan keyin ham ota-onalar eʼtiborsizlik qilsa, bunday ota-ona bilan alohida ishlar olib borish zarur. Chunki ikki tomonlama, yaʼni uyda ota-ona tomondan, maktabda oʻqituvchi tomondan olib borilgan tarbiyaviy ishlar katta ahamiyatga ega.

*“Bola-loy, ona-kulol”**(O'zbek xalq maqoli)*

Bejizga biz bolani “loy”ga onani esa “kulol”ga o'xshatmadik. Sababi shundaki, har bir bola uyidagi muhitdan kelib chiqib shakillanadi, ya'ni ota-onasini muomilasidan, ma'daniyatidan, xulqidan kelib chiqib, o'z xarakteriga ega boladi. Shunday ekan, har bir o'quvchi tarbiyani oilasidan oladi, maktabda, ya'ni o'qituvchilar esa uni sayqallashtiribgina qolmay, bilim ham berishadi. Har qaysi pedagog ham, ota-onalar ham o'tkazilayotgan yig'ilishlarda faol ishtirok etishlari zarur masaladir [1, B. 76]. Shunday ekan, hurmatli ota-onalar yig'ilishlarda faol ishtirok eting va albatta, o'qituvchi bilan uzviy aloqada bo'lishni kanda qilmang!

Adabiyotlar:

1. Norqul Bekmirzayev. “Notiq, Nutq, Xulq”. Toshkent. 2019-yil.
2. S.Rasulov. “Maktab oiladan boshlanadi”. Toshkent. 2016-yil.
3. R.Mavlonova, O.To'rayeva, K.Xoliqberdiyev. Pedagogika. Toshkent. 2010.

РЕЗЮМЕ

Maqolada asosan sinf rahbarining faoliyati natijasida, sinf yig'ilishlari jarayonida ota-onalarni jalb qilish, hamda ularni maktab ta'limi jarayonida farzandlari bilan uzviy aloqada bo'lishini ta'minlashdan iboratligi haqida so'zboradi. Bu jarayon nafaqat o'qituvchi, balki ota-onalar zimmasiga ham katta ma'sulyat yuklaydi. Bundan tashqari o'qituvchining tarbiyaviy ishlari jarayonida birgalikda olib borilgan hamkorlik samarali natijaga ega bo'linadi.

РЕЗЮМЕ

Статья посвящена роли классного руководителя в привлечении родителей во время классных встреч, а также в обеспечении их тесного контакта со своими детьми в процессе школьного образования. Этот процесс возлагает большую ответственность не только на учителя, но и на родителей. Кроме того, плодотворным будет совместная работа учителя в учебном процессе.

SUMMARY

This article focuses on the role of the homeroom teacher in engaging parents during class meetings, and in ensuring their close contact with their children during schooling. This process places great responsibility not only on the teacher, but also on the parents. In addition, the teacher's joint work in the educational process will be fruitful.

БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ЙЎНАЛИШИ ЎҚУВ ФАНЛАРИ ТУЗИЛМАСИ ВА ЗАМОНАВИЙ ЎҚУВ АДАБИЁТЛАРИНИ ЯРАТИШ ПРИНЦИПЛАРИ

*Мамадалиев К.Р.**Тошкент вилояти ЧДПИ “Бошлангич таълим” кафедраси ўқитувчиси*

Таянч сўзлар: дарслик, узлуксиз таълим тизими, ўқув фан дастури, бошлангич таълим йўналиши, дидактик талаблар, малака талаблари, глоссарий, атамалар лугати.

Ключевые слова: издание, система непрерывного образования, докторантура, направление начального образования, дидактические требования, квалификационные требования, глоссарий, глоссарий терминов.

Key words: publication, continuing education system, doctoral studies, primary education, didactic requirements, qualification requirements, glossary, glossary of terms.

Ўтган қисқа икки йил ичида мамлакат таълим-тарбия тизимини тубдан ислох қилишга алоҳида эътибор қаратилиб, олий таълим муассаса (ОТМ)ларида рақобатбардош қарлар тайёрлаш масаласида кенг қўламдаги ишлар амалга оширилди